

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 5

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

YUSUPOV Lutfullo Sayitturayevich

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
akademik litsey direktori, mustaqil tadqiqotchi*

YUSUPOVA Shohida

*Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari doktori, professor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980866>*

АКАДЕМИК ЛИТСЕЙ HAMDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA KREATIVLIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Yangi O'zbekistonni dunyoga ochilishi va globballashuv jarayoniga faol integratsiyalashuvi, yoshlarning kreativ hamda ijodiy fikrlash kabi ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu ko'nikma XXI asrda rivojlantirishi kerak bo'lgan eng asosiy ko'nikmalaridan biriga aylanishga ulgurgan, hozirda taraqqiy etgan davlatlarning ta'lim tizimlari o'quvchilarda aynan shu ko'nikma malakani shakllantirishga katta e'tibor qaratayotganligi ham bejiz emas albatta. Maqolada umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini ingliz tili darslari misolida shakllantirish va rivojlantirish uslub va vositalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ kompetensiya, kreativ tafakkur, nostandart yondashuv, yuqori sinf o'quvchilari, ingliz tili, kreativlik tushuncha.

ЮСУПОВ Лутфулло Сайиттураевич

*Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий
директор Академического лицея, независимый исследователь*

ЮСУПОВА Шохид

*Андижанский государственный педагогический институт
доктор педагогических наук, профессор*

АКАДЕМИЧЕСКИЙ ЛИЦЕЙ И ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ КРЕАТИВНОСТЬ У УЧАЩИХСЯ КЛАССА-ЭТО КОМПЕТЕНТНОСТЬ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Открытие нового Узбекистана миру и его активная интеграция в процессы глобализации требуют формирования и развития навыков и компетенций молодежи, таких как творческое и творческое мышление. Неслучайно этот навык стал одним из самых базовых навыков, которые необходимо развивать в XXI веке, и образовательные системы развитых стран уделяют большое внимание формированию этого навыка у учащихся. В статье говорится о методах и средствах формирования и развития творческих способностей старшеклассников общеобразовательных школ на примере уроков английского языка.

Ключевые слова: креативность, творческая компетентность, творческое мышление, нестандартный подход, старшеклассники, английский язык, концепция творчества.

YUSUPOV Lutfullo Sayitturayevich

*Andijan Institute of Agriculture and agrotechnologies
director of the academic Lyceum, independent researcher*

YUSUPOVA Shohida

*Andijan State Pedagogical Institute
doctor of Pedagogical Sciences, professor*

HIGHER ACADEMIC LYCEUM AND SECONDARY SCHOOLS CREATIVITY COMPETENCE IN GRADERS THE IMPORTANCE OF FORMATION

ANNOTATION

The opening of the new Uzbekistan to the world and its active integration into the processes of globalization require the formation and development of skills and competencies of young people, such as creative and creative thinking. It is no coincidence that this skill has become one of the most basic skills that need to be developed in the 21st century, and the educational systems of developed countries pay great attention to the formation of this skill in students. The article deals with the methods and means of formation and development of creative abilities of high school students of general education schools on the example of English lessons.

Key words: creativity, creative competence, creative thinking, non-standard approach, high school students, English language, creativity concept.

Axborot va texnologik taraqqiyot asrimizda paydo bo'layotgan katta va kichik muammolarning yechimi xilma xil yondashuvlarni talab qilmoqda. Texnologiya taraqqioyoti jadal sur'atlarda o'sgani sari bir tomondan inson turmush darajasini oshirishga xizmat qilsa boshqa tomondan turli xil ijtimoiy va ekologik muammolarni ko'payishiga olib kelmoqda. Bu tabiiyki muammolarga yechim topishda o'zgacha yondashuvni talab qilmoqda. Aksariyat xollarda muammolarning yechimi nostandart va kreativ yondashuv asosida amalga oshirilishiga e'tibor kuchaygan [1].

Ijodiy tafakkur orqali berilgan yechim o'zining soddaligi, o'ziga xosligi va asosiysi barchaga qulayligi bilan ajralib turadi. Kreativ fikrlash va masalaga nostandart yondashuv, muammoning o'ziga xos, original yechim topilishiga turtki beradi, shu tufayli, barcha soha vakillarida ushbu ko'nikmani shakllantirishga extiyoj sezilarli darajada ortgan. Kreativ fikrlash ba'zi xolatlarda nostandart fikrlash atamasi bilan ham qo'llaniladi, buning asosiy sababi, kreativ fikr yurituvchi shaxs masalaga noodatiy tarzda, qabul qilingan standart va stereotiplardan voz kechgan xolda yondashadi [2].

Ommaning aksariyat qismida masalaning bu kabi noodatiy yechimini qabul qilishi juda qiyin kechsada, biroq keyinchalik aynan ushbu yechim masalaning eng to'g'ri va samarali bo'lganligi tan olinadi. Samolyot, raketa, radio, telefon, kompyuter va shu kabi boshqa bir qancha ixtirolarning ilk g'oyalari o'z davrida ko'plab qarshilik va to'siqlarga duchor bo'lganligi tarixiy voqe'iliklarda ham o'z ifodasini topgan. Kreativ fikrlovchi insonlarning o'z davr va makonlardagi stereotiplardan voz kechishi, inson manfaati uchun xizmat qiluvchi yangi ixtirolar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Xozirda ham kreativ fikr va yondashuv, xayotning barcha jabxalarida yuqori baxolanganligi tufayli, bunday sifatga ega bo'lgan shaxslarga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda.

Hozirgi Yangi O‘zbekiston sharoitida darslarni nostandard yondashuv asosida tashkil qilish hamda o‘quv mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan unumli foydalanishning ahamiyati yanada ortgan. Yangi O‘zbekistonni dunyoga ochilishi va globballashuv jarayoniga faol integratsiyalashuvi, yoshlarning kreativ hamda ijodiy fikrlash kabi ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Bu ko‘nikma 21 asrda rivojlantirishi kerak bo‘lgan eng asosiy ko‘nikmalaridan biriga aylanishga ulgurgan, xozirda taraqqiy etgan davlatlarning ta‘lim tizimlari o‘quvchilarda aynan shu ko‘nikma malakani shakllantirishga katta e‘tibor qaratayotganligi ham bejiz emas albatta [3]. Kreativlik tushunchasi xammada turli xil talqin qilinadi, ba‘zilar bu tushuncha buyuk daxolarga tegishli fikrini qo‘llab quvvatlasalar, ayrimlar kreativlik barcha san‘at vakillariga xos fikrida sobit turadilar, shuningdek biznes olami vakillari ham kreativlikni tadbirkorning eng zarur xislati bo‘lishi kerakligini iddao qiladilar.

Kreativlik nima o‘zi va ushbu ko‘nikmani o‘quvchilarda qanday shakllantirish mumkin?

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma‘noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir [4]. K.Rojers (1994) kreativlikni muammolarni yechishning yangi yo‘llari va yangi ifodalash usullarini kashf etish qobiliyati deb tushunadi [5].

Umumiy ma‘noda kreativlik loticha “creato” – yaratish ma‘nosidan olingan bo‘lib, shaxsning g‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratish, mavjud muammoga o‘ziga xos yechimlarni topish, an’anaviy fikrlash shakllaridan, umumqabulqilingan stereotiplardan voz kechgan xolatda masalaga yondashuv tushuniladi.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o‘quvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash) [6].

Akademik litsey o‘quvchilarining yosh davri, inson ontogenezing muhim davri hisoblanib, kasbiy kamol topishi, rivojlanish g‘oyalarni qaror topishi, mantiqiy tafakkurni rivojlanishi hamda o‘quv bilishga bo‘lgan extiyojni ortishi ayni shu davrda faollashishi bilan ajralib turadi [7].

Akademik litsey o‘quvchilari va umuman o‘rta maktab yuqori sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish va kreativ shaxs sifatida tarbiyalash masalasi yuzasidan oxirgi yillarda yurtimizda izlanish, tadqiqot ishlari faollashgani kuzatilmoqda.

Akademik litseylar va boshqa ta‘lim muassasalarida an’anaviy yondashuv asosida olib borilayotgan barcha fanlardan, jumladan ingliz tili fanidan ham o‘quvchilardan ijodiy tafakkur rivojlanishini kutish yoki kreativ fikrlashga chorlash albatta biror bir ijobiy natija bermasligi aniq. Shundan kelib chiqqan xolda, shuni ishonch bilan aytish kerakki, ta‘lim tizimida o‘qish faoliyatida bo‘lgan o‘quvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun avvalo sinfda, ta‘lim muassasida ana shunday muhitni barpo etish kerak. Kreativlik o‘z o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, kreativlik ko‘nikmasi ma‘lum vaqt ichida o‘qib o‘rganish, turli mashg‘ulotlarda faol qatnashish, tengdoshlar bilan izchil fikr almashish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta sekin takomillashib rivojlantirib boriladi.

Stenberg va Uilliams(1996) fikriga ko‘ra, o‘qituvchi va sinfdagi qulay muxit, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muxim rol o‘ynaydi. Kreativ muxitda ta‘lim olayotgan o‘quvchilarda asta sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek kreativ sifatlarga ega o‘qituvchini kuzatish natijasida o‘quvchida kreativ fikrlashga moyillik seziladi [8].

Kreativ o‘quvchilar qolgan o‘quvchilarga qiyoslaganda quyidagi sifatlardan ajralib turadi:

- Tengdoshlari orasida boshqacha fikrlaydi va boshqa o‘quvchilar xayoliga kelmagan g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydilar.

- O‘ziga xosligi o‘zlarini ifoda etishda ham yaqqol sezilib turadi.

- Aksariyat xollarda mavzu tashqarisidan yoki g‘ayrioddiy savollar beradi.

- Murakkab, yechimi ochiq savollar bilan ishlashdan zavqlanadi.

- Muammoning yechimida noan‘anaviy yondashuvni afzal ko‘radi.

- G‘oyalar muxokamasida dalillarga tayanishni xush ko‘radi.

- Kreativ fikrlash ko‘nikmasi.

Pol Torrance (1987), "kreativlik otasi" sifatida dunyoga tanilgan ma‘lum va mashhur olim. Pol Torrens kreativ fikrlashning to‘rtta ko‘nikmasini aniqlagan. Torrens tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ushbu to‘rt ko‘nikmani o‘rganish, o‘rgatish va baxolash mumkinligini ko‘rsatgan [9].

- Ravonlik. Ko‘p g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmasi, bunda asosiy e‘tibor “ko‘p” kalit so‘ziga qaratilgan.

- Moslashuvchanlik. Turli xil, rang-barang g‘oyalarni ishlab chiqish ko‘nikmasi, bunda asosiy e‘tibor “o‘zgartirish” kalit so‘ziga qaratilgan.

- Originallik. Yagona maqbul g‘oyani taqdim qilish ko‘nikmasi, bunda asosiy e‘tibor “noodatiy” so‘ziga qaratilgan.

- Ishlab chiqish. G‘oyaga tafsilotlarni qo‘shish yoki fikrlarni kengaytirish ko‘nikmasi, “qo‘shish” kalit so‘zi zamirida rivojlantiriladi.

Kreativlikni ushbu ko‘rsatkichlarini o‘quvchilarda shakllantirish uchun albatta maqsadli va muntazam olib boriluvchi mashg‘ulotlar orqali erishish mumkin. Yuqorida so‘z yuritilganidek, kreativlik oz-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi u o‘quvchilarda ma‘lum uslub va vositalar yordamida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bu jarayonni amalga oshirilishida albatta o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir.

O‘qituvchi avvalo o‘zida an shu ko‘nikma shakllantira olsa u bu “xislatni” qolgan o‘quvchilarga “yuqtirishi” oson kechadi. Sinf ijodiy muhitni ham barpo qiladigan va o‘quvchilarni kreativlik mashg‘ulotlarga barchani birdek jalb qoladigan ham ayni o‘qituvchining o‘zidir. Darsga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda ta‘lim metod, uslub va vositalarni o‘qituvchi tanlaydi va malaka tajribasiga muvofiq uni rivojlantiradi takomillashtiradi. Masalan akademik litsey yoki umumta‘lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida kreativlik sifatini rivojlantirish maqsadida darslarda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishlari dars samaradorligini bir necha barobarga oshirgan.

An‘anaviy darslaridagi odatiy savol javob yoki bir hillikdagi mashq va topshiriqlar o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lish bilan ularni darsni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini ham sustlashishiga olib keladi. Shuning uchun o‘quvchilar mavzuga mos maqsadli o‘yin tarzidagi mashg‘ulotlarni zo‘r ishtiyoq bilan qabul qiladilar va bu mavzu o‘zlashtirilish sifatini ham yaxshilanishiga olib boradi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun kichik yoshdagi maktab o‘quvchilaridek yengil, aksar jismoniy harakatlaridan iborat o‘yinlar mos emas, ularga ko‘proq fikr yuritishga undovchi, shaxsiy fikrini ifodalashga rag‘batlantiruvchi, fanga mos bilimlarni rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalari qo‘l keladi [10].

Quyida yuqori sinf o‘quvchilarining ingliz tili darslarida til ko‘nikmalarining shakllantirish barobarida kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlantirishga ko‘mak beruvchi bir qancha o‘yin metodlari tavsiya qilindi. Ingliz tili darsi misolida o‘yin texnologiyasini dars jarayonlariga integratsiya qilinishi, darslarni qiziqarli, mazmunli va jonli bo‘lishini ta‘minlash bilan birga o‘quvchilardagi faollikni ham oshirishga xizmat qiladi. Bunda faqat o‘quvchilarni soni, yoshi, va ingliz tilidagi bilim darajasini mosligini hisobga olish maqsadga muvofiqir. Taqdim etilayotgan o‘yin mashg‘ulot namunalari tayyorlashda Natalie Hess ning “Teaching multilevel classes” va J. Staneberg “110 EFL games” qo‘llanmalaridan foydalanilgan

Isming va sifating.

Maqsad: Guruhda do‘stona va ishchan guruhni hosil qilish. Kreativlikni moslashuvchanlik sifatini rivojlantirish

Ishtirokchilar soni: 10-15 ta.

Bilim daraja: boshlang‘ich va o‘rta.

Olib borish tartibi: Ismini sifatga qo‘shib aytish.

Vaqt: 10-15-minut.

Maqsad: O‘qituvchilarni o‘zaro tanishtiruvchi hamda o‘quvchilarni oddiy fikrlashda, noodatiy fikrlash shakliga o‘tishiga ko‘mak berish.

Olib boorish tartibi, birinchi o‘quvchi ismini aytadi va ism bosh xarifiga mos ravishda sifatni qo‘shadi. Masalan: Aziza-Astive.

Qolgan o‘quvchilar ham ana shunday tartibda o‘zidan avvalgi ismga qo‘shib o‘zinikini aytadi. Masalan: Aziza-astive, Navbahor-nice... qaysi o‘quvchi ism va sifatlarini to‘liq va adashmasdan aytsa o‘sha o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

I am and love (Ism va yoqtirgan narsalar).

Maqsad: So‘zlarni o‘zlashtirish, Present Simple mavzusini mustahmlash, kreativlikning moslashuvchanlik va originallik sifatlarini rivojlantirish.

Bilim daraja: boshlang‘ich va o‘rta.

Ishtirokchilar: 10-15minut.

Vaqt: 10-15.

Olib borish tartibi: O‘quvchilar o‘z ismlarini aytadilar va ismlarga qo‘shib o‘zi yoqtirgan narsalarni, shaxs ismlarini aytadilar.

Masalan: I am Ali and I love Icecream...

Qolgan o‘quvchilar ismlar va yaxshi ko‘rgan narsalarini takrorlaydilar. O‘quvchilar bir-birlariga kimning yaxshi ko‘rgan narsasi o‘zining sevimli narsasiga yaqin ekanligini aytadilar.

Boshqa muqobil variantda, bu mashg‘ulotni yomon ko‘rgan narsa yoki qo‘rqadigan narsa bilan ham qo‘llash mumkin.

Masalan: I am Botir and I am afraid of spiders... I am Jamila and I hate lies...

The Letter (Maktub).

Maqsad: Ingliz tilida yozuv nutqi ko‘nikmasini rivojlantirish. Kreativlikning moslashuvchanlik sifatini shakllantirish.

Bilim daraja: o‘rta va yuqori.

Ishtirokchilar soni: 10-15 nafar.

Vaqt: 20-30 minut.

Olib boorish tartibi, o‘quvchilarimizga o‘zingiz haqingizda maktub yozing. O‘quvchilar bilish kerak bo‘lgan barcha narsalarni yozishingiz mumkin. O‘quvchilar sizga nima haqida yozmoqchiligini xohlasangiz shu narsalarni xatda ifoda eting. Har bir o‘quvchiga alohida maktub tayyorlang.

- maktublarni tarqating va uni ovoz chiqarib o‘qing.

- o‘quvchilarga shu xatga javob xati yozishlarini ayting. Xat baholanmasligini tushuntiring.

- xatlarni yig‘ib oling va o‘quvchilar haqida ma’lumot yig‘ing hamda keyingi mashg‘ulotlarda shu ma’lumotlar asosida “Guess who” mashg‘ulotini ham o‘tkazishingiz mumkin.

Xat namunasi:

Dear students

My name is Lutfullo Yusupov. I am your English teacher. I really love my work. I love kids and work with them. I like reading books in my free time. Besides. I Love animals especially horses.

I am afraid of snakes. My Favorite food is kebab. I love walking under the rain, besides English I know Russian and Arabic a little...

I am glad that you here. Please write to me a bit about yourself

Sincerely Lutfillo

Guess who? (Toping kim u)

Maqsad: Ingliz tilida ogʻzaki va yozma nutqlarini rivojlantirish. Kreativlik moslashuvchanlik va originallik sifatlarini rivojlantirish.

Bilim daraja: boshlangʻich va oʻrta.

Ishtirokchilar soni: 10-15.

Olib boorish tartibi, oʻquvchilar yozgan xatlardan oʻquvchilarni eng muhim xislatlarini olib, jadvalga chizing. Oʻquvchilar eʼtiroz bildirmaydigan voqea va narsalari haqida maʼlumot kiriting.

- Jadvalni “Kimligini top” deb nomlang.

- Jadval tushirilgan tarqatmalarni oʻquvchilarga tarqating va oʻquvchilar bir-biridan soʻrash yoʻli bilan jadvalni toʻldirishini ayting.

- Ular istagan shachs topilganda ular ismi yoniga imzosini qoʻydiring (tasdiqlatib olish kerakligini ayting).

Guess who?

- has been in Tashkent 5 times.
- has 5 sisters.
- has never eaten ice-cream.
- is afraid of flying.
- hates to study.
- know 3 languages.
- plays piano.
- speaks Korean.

“Predmentlarga yangicha yondashuv”

Maqsad: Ingliz tilida ogʻzaki nutqni rivojlantirish, kreativlik moslashuvchanlik va originallik sifatlarini shakllantirish, yangi gʻoyalarni rivojlantirish.

Bilim daraja: oʻrta va yuqori.

Materiallar: qalam, ruchka, shyotka, sumka...

Vaqt: 15-20 minut.

Olib borish tartibi: Guruh 4 kishilik kichik guruhlariga boʻlinadi. Oʻqituvchi barcha guruhlariga bir predmetni koʻrsatadi va 2 minut ichida ana shu predmetdan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini soʻraydi. Kichik guruhlar ajratilgan vaqt mobaynida ushbu predmetdan yana boshqa maqsadlardagi foydalanish usullarini topish kerak. Qaysi guruhning javobi koʻproq va oʻziga xos original boʻlsa osha guruh gʻolib hisoblanadi.

Masalan: Qalamning asosi vazifasi yozish. Ammo bundan tashqari qalamni boshqa vazifasida ham ishlatish mumkin. Masalan: jazvar oʻrnida ...

Ishtirokchilar kichik guruhlariga boʻlingan holda, oʻqituvchi tomonidan berilgan istalgan predmetni boshqa yana maqsadlarda ishlatish mumkinligini inglizcha aytib beradi.

Pencil might be used as a ruler
a stick...

“Moʻjizakor kurs”

Maqsad: Oʻgaki nutq va tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish. Kreativlikning tezkorlik oʻziga xos tafakkur koʻrsatkichlarini rivojlantirish.

Bilim daraja: oʻrta va yuqori.

Materiallar: stul, kreslo.

Oʻtkazish vaqti: 10 minut.

Olib borish tartibi: Oʻquvchilar kichik guruhlariga boʻlinadilar. Barcha oʻquvchilar koʻrishi uchun doska oldiga stul qoʻyiladi. Navbatma-navbat guruh ishtirokchilari stul oldiga chiqadilar va stulni oʻzlariga tasavvuridagi predment yoki xayvonga aylantiradilar. Ishtirokchi belgilangan vaqt ichida (15 sekund) uni tasvirlaydi hamda oʻsha ishtirokchining komanda aʼzolari tasvirga qarab oʻsha hayvon nomini topishlari kerak. Har bir toʻgʻri topilgan soʻz uchun bir ball beriladi.

Muqobil variant: Sinf kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh ishtirokchisi qarama qarshi guruh ishtirokchisiga o‘zi tasavvuridagi hayvon nomini yashirincha maxsus ajratilgan varoq orqasiga yozib qoldiradi. Keyingi ishtirokchi o‘sha hayvonni o‘z guruh ishtirokchilariga tasvirlash kerak. Bu ham o‘z navbatida qarshi guruh uchun yozib qoldiradi va h.k.

Bundan tashqari stol kasb tariqasida ishlatish mumkin. Bunda ishtirokchi stulga o‘tiradi va bir zum o‘zini hayolidagi kasbini tasvirlay boshlaydi va guruh ishtirokchilari kasbni topishlari kerak. Bu mashg‘otni mashxur kimsalar, aktyorlar, yozuvchilar, va boshqa mashxur shaxslar bilan ham o‘tkazish mumkin.

Texnologiyaning shiddatli tarzda taraqqiy etishi va globalashuv jarayoning faollashuvi ta’lim soha vakillariga kundan kunga yangidan yangi vazifalarni yuklamoqda. Biz ta’lim olgan 30 yil avvalgi ta’lim tizimida faol ishlatilgan an’anaviy dars uslublari o‘sha vaqtda ma’lum ma’noda samara bergan bo‘lsada, hozirgi axborot asri yoshlarimiz bilan ishlashda biror natijadorlikka erishish mushkul hisoblanadi. Ayniqsa chet tillarini o‘rganishda, internet tizimi barcha sohalarni shu jumladan til o‘rganish jabhasini ham faol rivojlantirib yuborgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yoshlarimizga chet tillari kommunikativ kompetensiyalari va zamonaviy kasb bilim ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun yangicha yondashuv, zamonaviy uslub va vositalarni amaliyotga qo‘llashga extiyoj ortgan. Bu borada xorijiy tajribalaridan foydalanish e’tiborga molik hisoblanadi.

Maktabning yuqori sinf o‘quvchilari yoki ana shu yoshdagi akademik litsey o‘quvchilarining kreativlik sifatlarini oshirishda o‘yin texnologiyasidan foydalanish ancha samarali uslub hisoblanadi. Maqolada keltirilgan amaliy mashg‘ulotlar dars jarayonlarida mazmun va shakli o‘zgartirilgan xolda ko‘p qo‘llanilgan hamda natijasiga ko‘ra samaradorligi yuqori ekanligi tajribada ko‘p bor kuzatigan. Mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ingliz tilidagi grammatika va leksika aspektlarini yaxshilashi bilan birga kreativ fikrlash ko‘nikmalarini oson shakllantirishga yordam beradi. Xulosa sifatida aytishim kerak bo‘lgan narsa shuki, agar biz ertangi jamiyatimizni farovon va yoshlarimizni mustaqil, barkamol avlod sifatida ko‘rishni xoxlar ekanmiz bugun ta’lim tizimini modernizatsiya jarayonida faol ishtirok etib, darsga bo‘lgan munosabat va yondashuvni jiddiy o‘zgartirishimiz kerak. Buning uchun avvalo o‘zgarishni o‘zimizdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Patti Drapeau. Sparking Student Creativity: practical ways to promote innovative thinking and problem solving. Alexandra, Virginia USA. 2014
2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. Учеб. пособие. - М.: Академия, 2002.
3. Авазбоев А.И., Пардабоев Ж. Э., Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари. “Замонавий таълим /Современное образование”, 8/ 2018
4. Усмонбоева, А. Тўраева. Креатив педагогика асослари. Ўқув услубий мажмуа. ТДПУ, 2016
5. Муслимов Н. А. Ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/Монография-Тошкент “Фан Технология” нашриёти 2013
6. Patti Drapeau. Sparking Student Creativity: practical ways to promote innovative thinking and problem solving. Alexandra, Virginia USA. 2014
7. Dos’stmammedova Sh. A., Nishanova Z. T., va bosh. Yosh davrlari va Pedagogika psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2013
8. Усмонбоева, А. Тўраева. Креатив педагогика асослари. Ўқув услубий мажмуа. ТДПУ, 2016
9. Ильин, Е. П. Психология творчества, креативности, одарённости. Е.П. Ильин. - СПб.: Питер, 2011
10. Халифаева, О. А. Развитие креативности подростков в образовательном учреждении. О.А. Халифаева. - Психология обучения. - 2008. -№9
11. Stainberg J “110 igr na urokah Angliyskogo yazika” Izdatelstvo Astrel 2004
12. Hess N. “Teaching Multilevel lasses” Cambridge Press University 2001

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz